

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXMONOVA DILNOZA SALAMOVNA

**BENZIMIDAZOL HOSILALARINING d-METALLAR BILAN GOMO- VA
GETEROLIGANDLI, ARALASH METALLI KOMPLEKSLARINING
YO‘NALTIRILGAN FUNKSIONALLASHUVI VA STRUKTURAVIY
DIZAYN JARAYONLARINING QONUNIYATLARI**

02.00.01 – Noorganik kimyo

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) химическим наукам

Table of contents of the abstract of the dissertation of the doctor (DSc) of chemical sciences

Raxmonova Dilnoza Salamovna

Benzimidazol hosilalarining d-metallar bilan gomo- va geteroligandli, aralash metalli komplekslarining yo‘naltirilgan funkcionallashuvi va strukturaviy dizayn jarayonlarining qonuniyatlari 3

Рахмонова Дилноза Саламовна

Закономерности процессов структурного дизайна и направленной функционализации гомо- и гетеролигандных, смешаннометалльных комплексов d-металлов с производными бензимидазолов29

Raxmonova Dilnoza

Regularities of structural design processes and directed functionalization of homo- and heteroligand, mixed-metal complexes of d-metals with benzimidazole derivatives.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXMONOVA DILNOZA SALAMOVNA

**BENZIMIDAZOL HOSILALARINING d-METALLAR BILAN GOMO- VA
GETEROLIGANDLI, ARALASH METALLI KOMPLEKSLARINING
YO‘NALTIRILGAN FUNKSIONALLASHUVI VA STRUKTURAVIY
DIZAYN JARAYONLARINING QONUNIYATLARI**

02.00.01 – Noorganik kimyo

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/K104 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (ik-kimyo.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Kadirova Zuxra Chingizovna kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Umarov Baqo Bafayevich kimyo fanlari doktori, professor Ibragimov Aziz Baxtiyarovich kimyo fanlari doktori, professor Kasimov Sherzod Abduzairovich kimyo fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent Farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 -yil "20" *deyral* soat 14 *00* *dagi* majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. tel.: (99871) 246-07-88; (998 71) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; E-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ *9* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+998 24) 246-53-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 -yil " *3* " *02* kuni tarqatildi.
(2025 -yil " *1* " *02* *dagi* *3* raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

Sh.A.Kadirova
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
k.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda koordinatsion birikmalardan tibbiyotda mikrobgga, virusga, bakteriyaga, o‘simtaga, shamollashga, gijjaga qarshi vositalar, qishloq xo‘jaligida gerbitsidlar, fungitsidlar, insektitsidlar, o‘shini tezlashtiruvchilar va kimyo sanoatida korroziya ingibitorlari sifatida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, sinergizm tufayli ba‘zi d-biometallarning ko‘pfunksional benzimidazol hosilalari asosida olingan gomo-, geteroligandli va aralash metalli kompleks birikmalaridan foydalanish, o‘simliklarning o‘shini rag‘batlantiruvchi moddalarning biofaolligi, xavfsizligi va samaradorligini oshirishga, shuningdek ingibitorlarning korroziyaga qarshi ta‘sirini kuchaytirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda yuqori samarali va kompleks ta‘sirga ega biologik faol moddalar hamda korroziya ingibitorlarini sintez qilishning sharoitlarini optimallashtirish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada geterotsiklik birikmalarning metall komplekslari sintezida o‘rinbosarlarning ta‘sirini o‘rganish orqali turli xil koordinatsiyalanish usullari, ichki molekulyar va molekulararo ta‘sirilar, birikmalarning faol markazlarini modellashtirish, yangi moddalarni olishda metallarni tashish, saqlash, kam zaharli, ekologik xavfsiz bo‘lgan tabiiy analoglarni o‘rnini bosish imkonini beradi. Ayniqsa, tarkibida bir qancha faol funksional guruhlar tutgan gomo-, geteroligandli va aralash metalli kompleks birikmalarning sintezi, olinish sharoitlari, molekulyar va kristall tuzilishlari, fizik-kimyoviy xossalari hamda ularning biologik faolligini aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda kimyo sanoati sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan yangi turdagi o‘simliklarning o‘shini tezlashtiruvchi stimulyatorlar va korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada import o‘rnini bosadigan preparatlar sintezining ilmiy asoslarini yaratish va ichki bozorni mahalliy korroziya ingibitorlari bilan ta‘minlash maqsadida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”¹gi Farmonida “mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish”ga yo‘naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, xususan, mahalliy xom ashyo asosida o‘simliklarning o‘shini tezlashtiruvchi stimulyatorlarni ishlab chiqarishning tejamkor va ekologik toza texnologiyalarini yaratish, yangi yuqori samarali kompleks birikmalarni sintez qilish va ulardan metallar korroziyasini oldini olishda ingibitor sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2018-yil 25-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

PQ-3983-sonli, 2019-yil 3-apreldagi “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4265-sonli, 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli, 2021-yil 13-fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4992-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va aktlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi ². Biometallar asosidagi komplekslarning yo‘naltirilgan sintezi va tuzilishini hamda “tarkib – strukturaviy dizayn – funksionallashtirish” munosabatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy o‘quv yurtlarida, jumladan: RWTH Axen universiteti (Germaniya), Geydelberg universiteti (Germaniya), Tokio universiteti (Yaponiya), Pekin universiteti (Xitoy), Hindistonning Bombay texnologiya instituti (Hindiston), Massachusets texnologiya instituti (AQSh), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Lion kimyo va materiallar instituti (Fransiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Tomsk davlat universiteti (Rossiya) olib borilmoqda.

Benzimidazollar asosidagi komplekslarning biometallar bilan tuzilishi va ularning biologik faolligini o‘rganish natijasida butun dunyo bo‘ylab bir qator natijalarga erishilgan, jumladan: xelatli metallkomplekslarni sintezi amalga oshirilgan, ularning fazoviy tuzilishi va zaryad zichligi aniqlangan (Axen noorganik kimyo instituti, Germaniya); koordinatsion birikmalar sohasida d-metallarning sintezi va funksionallashuvi bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan, xususan, metallar va benzimidazol hosilalarining o‘zaro ta’sir qilish mexanizmlari hamda ularning ma’lum reaksiyalardagi katalitik faolliklari o‘rganilgan (Geydelberg universiteti, Germaniya); benzimidazollar asosida metall komplekslar sintez qilingan, ularning molekulyar va kristall tuzilishlari, shuningdek, katalitik faolliklari aniqlangan (Tokio universiteti, Yaponiya); metallarning faollashuv mexanizmlari va ularning benzimidazol ligandlari bilan metall komplekslarini katalizlashdagi roli tadqiq qilingan (Pekin universiteti, Xitoy); birikmalar sintezi va strukturaviy tadqiqotlar doirasida samarali katalizatorlar yaratilgan, ularning katalitik faolligi, jumladan, uglevodorodlarni faollashtirish qobiliyatini tahlil qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan (Hindistonning Bombeydagi texnologiya instituti, Hindiston); yangi katalitik metallokomplekslar sintezi amalga oshirilgan, jumladan benzimidazol hosilalarini ligand sifatida qo‘llash orqali, d-metallarning gomo- va geteroligandli komplekslari sintez qilingan (Massachusets texnologiya instituti, AQSH); komplekslarning tuzilishi, ularning elektron xususiyatlari va turli

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> va boshqa manbalar materiallaridan foydalangan holda tayyorlandi.

ekologik muhitlardagi ta'siri faol o'rganilgan (Oksford universiteti, Buyuk Britaniya); benzimidazol hosilalari asosida yangi metallokomplekslar olingan, organik sintez va katalizda foydalanish uchun benzimidazol hosilalari bilan metallokomplekslarning sintezi va funkcionallashuvi amalga oshirilgan (Lion kimyo va materiallar instituti, Fransiya); kvant-kimyoviy usullar, molekulyar dinamika va eksperimental tadqiqotlardan foydalangan holda nazariy modellashtirish o'tkazilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya); yangi materiallar va katalizatorlar yaratish uchun benzimidazol ligandlari asosida komplekslar olingan (Tomsk davlat universiteti, Rossiya).

Jahonda ko'pfunksional benzimidazol hosilalari asosidagi metall komplekslarning biologik va katalitik faolliklarini oshirish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda: komplekslarda markaziy metall kationining ligandlar bilan koordinatsiyalashuviga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash; aralash ligandli biofaol barqaror xelat birikmalarni sintez qilish; kompleks birikmalar asosida biologik faol moddalarni olish va ta'sir mexanizmini aniqlash; past konsentratsiyalarda ekologik toza, arzon va yuqori samarali dori vositalarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda geterotsiklik organik ligandlarning oraliq metall ionlari bilan kompleks birikmalarining sintezi, tarkibi, tuzilishi, termik barqarorligi, elektron tuzilishi, reaksiya va biologik faolliklarini aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, L.Oehlers, C.L.Mazzitelli, M.Haghverdi, M.N.Haghighi, C.Xi, R.B.Guerra, B.F.Li, D.C. Zhong, X.Y. Li, Ch.Miao, C.S. Hawes, Q.Li, M.Tlahuextl, R. Feng tadqiqotlarida ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan. Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasi (Cambridge Crystallographic Data Center)ning tahliliga ko'ra, shu vaqtga qadar 40 ta 2-aminobenzimidazol hosilalari va 79 ta merkaptobenzimidazol hosilalarining metallokomplekslari o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida koordinatsion birikmalar va ularni amaliy qo'llash N.T.Kuznetsova, Ye.V.Antipova (Rossiya), A.P.Gulya (Moldova), V.I.Pexnko (Ukraina), G.V.Sinsadze (Gruziya) rahbarligidagi olimlarning ilmiy guruhlar va maktablari tomonidan tashkil etilgan. Olimlar tomonidan koordinatsion birikmalarning tuzilish nazariyasi doirasida kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va biologik faolligini aniqlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan, supramolekulyar va polimer kompleks birikmalarning molekulyar dizayni bo'yicha yondashuv ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda koordinatsion birikmalar kimyosi sohasida akademiklar N.A.Parpiyev, B.T. Ibragimov, professorlar X.T. Sharipov, T.A. Azizov, B.V.Umarov, A.A. Shabilalov, X.X. To'rayev, Sh.A. Kadirova, Z.Ch. Kadirova va Sh.Sh.Daminovalar ilmiy maktablari olimlari faoliyat olib bormoqda.

Shu bilan birga, adabiyot manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, oraliq metallarning geterotsiklik organik ligandlar bilan komplekslari bo'yicha katta miqdordagi eksperimental ma'lumotlarga qaramay, d-metallarning benzimidazol hosilalari bilan kompleks birikmalari nisbatan kam o'rganilgan. Shu bois, benzimidazol hosilalarining koordinatsion birikmalarini sintez qilish, fizik-kimyoviy va biologik xossalari aniqlash alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-45 «Metallarning yangi geterohalqali polifunksional biologik faol ligandlar bilan qishloq xo‘jaligi va tibbiyotda qo‘llash uchun poliedrning ma‘lum tuzilish va funkcionallikka ega bo‘lgan koordinatsion birikmalarining yo‘naltirilgan sintezi» (2017-2020-yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Benzimidazol hosilalarining d-metallar bilan gomo- va geteroligandli, aralash metalli komplekslarining yo‘naltirilgan funkcionallashuvi va strukturaviy dizayn jarayonlari qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

benzimidazol hosilalari asosida yangi ligandlar va metall komplekslarini sintez qilish usullarini ishlab chiqish;

ligandlarning strukturasi, elektron tuzilishi va raqobatbardosh donor markazlarini kvant-kimyoviy hamda rentgen strukturaviy tahlil usullari yordamida tahlil etish;

V(IV), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) va Cd(II) xlorid, yodid, nitrat, atsetat, sulfat va atsetilatsetonatlari bilan gomo- hamda geteroligandli komplekslarini sintez qilish;

aminobenzimidazol hosilalarining Mn^{2+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cu^{2+} , Zn^{2+} , Cd^{2+} va NH_4VO_3 asosidagi aralash metalli kompleks birikmalarining templant sintezini amalga oshirish;

sintez qilingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini fizik-kimyoviy tadqiqot hamda kompyuterda prognozlash usullarini birgalikda qo‘llash orqali aniqlash;

ligand molekularidagi elektronodonor, elektronoakseptor funkcionall o‘rinbosarlarning ta’siri, biometall ionlari, atsidoligandlar tabiatining sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy va boshqa xossalariga bog‘liqligini asoslash;

sintez qilingan birikmalarni qo‘llash mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash hamda benzimidazol hosilalarining ayrim komplekslarini biologik faolligi va zaharliligini baholash.

Tadqiqotning obyekti benzimidazol hosilalari va ularning oraliq metallar – V(IV,V), Mn(II), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Cd bilan kompleks birikmalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti geterotsiklik organik ligandlarning oraliq metallari bilan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, individualigi, fizik-kimyoviy va funkcionall xossalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari: element analiz, skanerlovchi elektron mikroskopiya – energiya dispersion rentgen spektroskopik analiz (SEM-EDX), differensial termik analiz (DTA), rentgenfazaviy analiz (RFA), rentgen strukturaviy analiz (RSA), diffuz qaytarishning elektron spektroskopiyasi (DQES), mass-spektrometriya, IQ- va PMR-spektroskopiya, zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblash usullari va kompyuterda biologik faolligini bashorat qilish usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ba’zi d-metallarining benzimidazol hosilalari - 2-amino-1-metilbenzimidazol (L^1), N,N'-bis (1-metil-1H-benzo[d]imidazol-2-il) metandiamin (L^2), 3-(1H-

benzo[d]imidazol-2-il)propan-1-ol (L^3), 5,6-dimetilbenzimidazol (L^4), 2-atsetilaminobenzimidazol (L^5), 2-metil-5-nitrobenzimidazol (L^6), 5-nitrobenzimidazol (L^7) va 5-amino-1H-benzo[d]imidazol-2-tiol (L^8) bilan 100 ta yangi gomo-, geteroligandli va aralash metalli kompleks birikmalari sintez qilingan;

sintez qilingan Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) va Cd(II) larni xloridli, nitratli, atsetetli tuzlarini L^{1-7} lar bilan M:L 1:2 va Co(II), Cu(II) va Cd(II) sulfatli tuzlarini L^1 bilan M:L 1:3 nisbatdagi yangi kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari va metall ionlarining ligand donor atomlari bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlari aniqlangan va olingan natijalar “tarkib – tuzilish – xossa” munosabatlariga mos kelishi isbotlangan;

ilk bor L^3 , L^6 , L^7 ning nitratli, sulfatli adduktlarini, L^1 ning Co(II) va Zn(II) atsetatlarini tetraedr, Cu(II) atsetatini L^1 bilan qiyshiq oktaedr, Cd(II) atsetat, sulfat, nitratini L^1 bilan oktaedr, V(IV,V) ning L^1 bilan oktaedr va tetraedr, Cu(II) va Co(II) xloridlarini L^3 bilan tetraedr shakldagi kompleks birikmalarining molekulyar va kristall tuzilishlari aniqlangan;

ikkita yangi polimorf $[CuL^1_2(CH_3COO)_2]$ komplekslarining stereokimyoviy va elektron ta'sirlar hamda Yan-Teller effekti tufayli metall-kislorod bog'larining aksial holatda uzayishi hisobiga qiyshiq oktaedr shakldagi mis ionining koordinatsion soni $KS=6$ ga teng bo'lgan sp^3d^2 gibridlanishli mono va dimer komplekslarining tuzilishlari isbotlangan;

yangi sintez qilingan komplekslarning termik xossalarining metall va atsidoligand tabiatiga bog'liqligi aniqlanib, L^2 bilan kompleks birikmalarda termik barqarorlik asidoligandlar $NO_3^- < Ac^- < SO_4^{2-} < Cl^-$ hamda metallar Co(II) < Cu(II) < Ni(II) qatorida ortib borishi isbotlangan;

ilk bor 3 ta ligand va 18 ta yangi komplekslarning kristall tuzilishlari isbotlangan hamda koordinatsion poliedrning geometriyasi kristallar tuzilish arxitekturasidagi atsido- hamda geterotsiklik ligandlarning tabiati va sterik ta'siriga, metallarning tabiati va elektron konfiguratsiyasi, kislota-asosli xossalari bog'liqlik qonuniyatlariga mosligi aniqlangan;

ilk bor RSA yordamida etil spirtining katalitik oksidlanishi natijasida 2-amino-1-metilbenzimidazolning misli kompleksini atsetaldegid bilan $[CuL^1_2]CH_3CO$ intermediatli tuzilishi isbotlangan;

yangi sintez qilingan birikmalarning *in silico* usulida biologik faolligining potensial turlari, zaharliligi va bioprepatlarning so'rilishi, tarqalishi, metabolizmi hamda metabolik parametrlari absorbsiyasi bilan bog'liqligi aniqlangan;

vanadil (II) atsetilatsetonatinning 2-amino-1-metilbenzimidazol bilan yangi kam zaharli kompleksining *in vivo* usulida qand miqdorini 32%ga kamaytirish orqali gipoglikemik faolligi aniqlangan;

bug'doyning o'sishini tezlashtirish va hosildorligini oshirish uchun yangi samarali stimulyator yaratilgan hamda yangi L^1Cu , L^1Zn , L^1Cd , L^1CuV kompleks birikmalarning kuchli kislotali muhitda biokorroziyaning ingibirlash mexanizmi taklif qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

komplekslarni olishning ishlab chiqilgan sharoitlari va usullari strukturaviy jihatdan o'xshash koordinatsion birikmalarni maqsadli sintez qilish, shuningdek, oraliq metallarning benzimidazol hosilalari bilan kompleks birikmalarining

xossalari va tuzilishini bashorat qilishda amaliy tavsiyalar uchun asos bo'lishi mumkin;

kvant-kimyoviy hisoblashlar va fizik-kimyoviy tahlil natijalaridan "Noorganik kimyo", "Kristallokimyo" fanlarida ma'ruza o'qish, amaliy va laboratoriya ishlarini olib borishda foydalanish mumkin;

sintez qilingan komplekslarning fizik-kimyoviy xossalari (birikma turi, markaziy ionning tabiati, neytral va geteroatom ligandlarning koordinatsiyasi) hamda biologik, ingibirlash, katalitik faolligi munosabatlaridagi o'ziga xoslik o'rnatilgan va ularning sintez sharoitlari aniqlangan;

sintez qilingan kompleks birikmalarning belgilangan gipoglikemik faolligi qandli diabet kasalligini davolash uchun dori vositalarini ishlab chiqarishda ulardan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi;

qishloq xo'jaligi o'simliklarining pishishini tezlashtiradigan va hosildorligini oshiradigan stimulyator yaratilgan;

vanadiyning mis va rux bilan aralash metalli komplekslarining korroziyaga qarshi faolligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning zamonaviy yuqori informatsion fizik-kimyoviy usullari – element, energiya-dispersion rentgen spektroskopik (EDX), differensial termik (DTA), rentgenfazaviy (RFA), rentgen strukturaviy (RSA) analizlar, IQ-, PMR-, diffuz qaytarishning elektron spektroskopiyasi (DQES), mass-spektrometriya (MS) va zamonaviy nazariy kvant kimyoviy hisoblashlar hamda kompyuterda prognozlash qo'llanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati d-metallar V(IV,V), Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn va Cd larning benzimidazol hosilalari bilan kompleks birikmalarini sintez qilishning qulay sharoitlari, yangi komplekslarning kristall tuzilishlari, koordinatsion poliedrning geometriyasi kristallar tuzilish arxitekturasidagi atsido- va geterotsiklik ligandlarning tabiati hamda sterik ta'siriga, metallarning tabiati va elektron konfiguratsiyasi, kislota-asosli xossalarga bog'liqliklari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 5-amino-1H-benzimidazol-2(3H)-tion, 3-(1H-benzo[d]imidazol-2-il)-propan-1-ol ligandlari, 3-(1H-benzo[d]imidazol-2-il)-propan-1-olning nitratli tuzi va VO(II) atsetilatsetonati, Cu(II) atsetati, Cd sulfatining L¹ bilan komplekslarini kristallografik ma'lumotlari Kembridj Xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilganligi hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stiruvchi va hosildorligini oshiruvchi yuqori samarali stimulyator yaratilganligi, shuningdek, d-metallarining benzimidazol hosilalari bilan gomo- va geterometalli komplekslari kislotali muhitda *Aciditisiobacillus ferrooxidans* bakteriyasi keltirib chiqaradigan biokorroziyasini yuqori samarali ingibitorlari sifatida taklif qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Benzimidazol hosilalarini oraliq metallar bilan yangi biologik faol metallokompleks birikmalarining sintezi va fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarni aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

DS-3 stimulyator preparati Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2020-yil 15-sentyabrdagi 02/021-2930-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, DS-3 preparatidan foydalanib bug‘doyning unib chiqishi 3-4 kunga tezlashib, pishishi 9-11 kunga qisqargan, hosildorlik esa gektariga 9 foizga oshgan;

2-amino-1-metilbenzimidazol asosidagi L^1Cu , L^1Zn , L^1Cd , L^1CuV tarkibli metallkomplekslar “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ amaliyotiga joriy qilingan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ ning 2024-yil 6-noyabrdagi 3/01-01-07/688-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, metall konstruksiyasi va qurilmalarida biokorroziyani ingibirlash hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri harajatlarni 30%gacha kamaytirish orqali samarali qo‘llashga xizmat qilgan;

5 ta yangi birikmalarning rentgen tuzilish tahlili natijalari Kembridj kristallografik ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan (the Cambridge Structural Database, CCDC nomerlari 2143895, 2142658, 2142657, 2394328, 2394331). Natijada, kompleks birikmalarning kristall tuzilishi natijalari, ma‘lum tuzilish va xossalarga ega bo‘lgan o‘xshash birikmalarni olishda foydalanish imkonini bergan;

yangi kompleks birikmalar sintez usullari bo‘yicha ma‘lumotlardan OT-F7-09 “Yuqori tarmoqlangan polimer matritsaga N,O,P,S – polifunksional ligandlarni immobillash orqali metallar uchun nanokompozitsion sorbentlarni maqsadli olishning nazariy asoslari” mavzusidagi fundamental loyihada birikmalarning metallkomplekslarini maqsadli sintez qilish, ularning tuzilishi va xossalarini aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 25-dekabrdagi 86-06-1185-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, analogik yangi komplekslarni olish va fazoviy tuzilishi hamda xossalarini aniqlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta xalqaro va 13 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruzalar qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 45 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta ilmiy maqola, jumladan, 11 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 194 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoni yechishdagi ahamiyati va zaruriyati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, tadqiqot obyektlari va predmeti berilgan hamda tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, ilmiy tadqiqot ishidan olingan natijalarni amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosalar qilingan hamda tadqiqot ishi asosida chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Metallarning funksional benzimidazol hosilalari bilan kompleks birikmalari: tuzilishidan qo‘llanilishigacha**» deb nomlangan birinchi bobida, asosan, kompleks hosil qiluvchi polifunksional ligandlar va ularning ahamiyati, benzimidazol hosilalari sintezi va tahlili keltirilgan hamda adabiyotlar qiyosiy tahlil qilingan. Ba’zi d-metallar ionlarining imidazol hosilalari bilan kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi va xossalriga doir ilmiy manbalar tahlil qilingan. Shuningdek, polifunksional geterotsiklik ligandlarning aralash metalli kompleks birikmalari tadqiqotiga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan. Adabiyotlardagi ma’lumotlarni tahlil qilish asosida dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari aniqlangan.


Dissertatsiyaning «**d-Biometallarning benzimidazol hosilalari bilan kompleks birikmalari sintezi**» deb nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya tadqiqoti doirasida foydalaniladigan asbob-uskunalar va reaktivlar, birikmalar sintezi usullarini tanlashga yondashuv, benzimidazol hosilalari ishtirokida kompleks birikmalar olish usullari va ularning fizik-kimyoviy xossalari hamda biologik faolliklarini aniqlash usullari yoritilgan.

Kompleks birikmalarning yo‘naltirilgan sintezida 2-amino-1-metilbenzimidazol (L^1), N,N'-bis (1-metil-1H-benzo[d]imidazol-2-il) metandiamin (L^2), 3-(1H-benzo[d]imidazol-2-il)propan-1-ol (L^3), 5,6-dimetilbenzimidazol (L^4), 2-atsetilaminobenzimidazol (L^5), 2-metil-5-nitrobenzimidazol (L^6), 5-nitrobenzimidazol (L^7) va 5-amino-1H-benzo[d]imidazol-2-tiol (L^8) ishlatilgan.

Dissertatsiyaning «**Sintez qilingan benzimidazol hosilalarining tuzilishiga bog‘liq tarzda raqobatdosh reaksiyon xususiyatlari tadqiqoti**» deb nomlangan uchinchi bobida benzimidazol halqasining turli holatlarida elektronodonor va elektronoakseptor o‘rinbosarlar (amino-, atsetil, nitro, metil)ni o‘z ichiga olgan ligandlarning tarkibi hamda tuzilishining spektroskopik tahlili o‘tkazilgan. Ko‘pfunksional ligandlar molekularidagi donor markazlarning reaksiyon qobiliyati kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida batafsil ko‘rib chiqilgan.

DFT metodi yordamida ko‘pfunksional ligandlarning elektron tuzilishlari va ularning d-metall ionlarini koordinatsiyalash uchun afzal bo‘lgan elektron donor markazlari aniqlandi. Zaryad qiymatlari va YuBQMOning lokallashuvi tahlilidan ligand molekulasini metall ionlari bilan koordinatsiyaga uchrashi mumkin bo‘lgan faol markazlari imidazol halqasidagi azot donor atomlari (N) (-0,565 eV), (-0,542 eV), (-0,504 eV), (-0,586 eV), karbonil guruhidagi kislorod (-0,479 eV), tion holatida oltingugurt atomlarida (-0,259 eV) va OH guruhining kislorod atomi (O) (-0,541 eV) ekanligi aniqlandi (1-jadval). Amino guruhning azot atomi halqadagi azot atomlariga qaraganda ko‘proq miqdordagi zaryadga ega. Ammo amino guruhdagi manfiy effektiv zaryadning yuqori bo‘lishiga qaramay, bu donor atom kompleks hosil qilishda qatnashmasligi aniqlandi, sababi, azot atomining taqsimlanmagan elektron jufti geterohalqa bilan koplanar holatda hamda mezomer effekt sababli halqaga yo‘nalganligi aniqlandi. DFT/B3LYP/6-311G (d, p) usulidan olingan kvant-kimyoviy hisoblashlarga asoslanib, ligandlar kompleks hosil qilish reaksiyasida kompleks hosil qiluvchi ionga imidazol halqadagi endo-holatda joylashgan azot atomi orqali monodentatlikni, L^5 da esa endotsiklik azot va

karbonil guruhidagi kislorod atomlari orqali bidentatlikni namoyon qilib koordinatsiyalanishi aniqlangan.



1-rasm. Ligandlarning 6-311G (d,p) bazisli DFT/ B3LYP metodi bo'yicha hisoblangandagi geometrik tuzilishi MEP va zaryadlarning taqsimlanishi


MEP ning manfiy qizil sohalari nukleofil reaksiya qobiliyati bilan musbat sohalari (ko'k) esa elektrofil reaksiya qobiliyati bilan bog'liq (1-rasm). L^1 - L^8 tarkibidagi manfiy (qizil) sohalari imidazol halqasining azot atomi va musbat sohalari (ko'k) vodorod atomi atrofida aniqlangan. Demak, elektrofil, asosan, ligandning azot tomonidan ta'sir qiladi. Hisoblangan ma'lumotlarga ko'ra, MEP xaritasida manfiy potentsiallar halqadagi azot atrofida joylashganligini ko'rsatadi (1-rasm).

Rentgen strukturaviy analiz va kvant-kimyoviy hisoblashlar ma'lumotlariga asoslangan geometrik kattaliklar taqqoslanganda hisoblangan hamda eksperimental ma'lumotlar bir-biriga mos kelishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «**Benzimidazol hosilalarining gomo- va geteroligandli metallkomplekslarini tuzilish xususiyatlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida sintez qilingan gomo-, geteroligandli metall komplekslarining tarkibi, strukturaviy dizayni va fizik-kimyoviy xossalari SEM-EDX, IQ-spektroskopiya, DTA, RFA va RSA kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanib tahlil qilingan.

Ilk bor RSA yordamida benzimidazol asosidagi 3 ta yangi geterotsiklik ligandlarning molekulyar va kristall tuzilishlari isbotlangan (2-rasm, 1-jadval). Ligandlar molekularlarining kristallografik ma'lumotlari tegishli depozit raqamlari bilan Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga joylashtirilgan.

L^3 molekulasini tekis tuzilishga ega ekanligi va halqa bo'ylab elektron zichlikning delokallanishi tufayli benzimidazol fragmentidagi bog'lanish uzunliklari bir xilligi aniqlandi. C-N bog'lanish uzunligidagi ba'zi farqlarning namoyon bo'lishi (C6-N2 1,376(3), N2-C7 1,352(3), N1-C1 1,393(3), N1-C7 1,322(3) Å), molekulararo o'zaro ta'sirlarda azot atomlarining ishtiroki bilan bog'liq, lekin umuman olganda bog'lanish uzunligi standart qiymatlarga mos keladi. Kristalda L^3 molekulari O-H...N va N-H...O vodorod bog'lari va kuchsiz C3-H...C3 (π) o'zaro ta'sirlari bilan bog'lanadi, bu esa 3D tarmoq strukturasi mustahkamlaydi.



2-rasm. Ligandlarning molekular tuzilishlari

L^6 ligandning mustaqil strukturaviy birligi 5 ta molekuladan iborat bo‘lib, ular o‘zlarining geometrik parametrlari bilan farqlanadi va vodorod bog‘lari orqali bir-biriga bog‘lanadi. Shuningdek, ligand molekularining kontakt izomerlar hosil qilishi isbotlangan.


1-jadval

Ligandlarning kristallografik ma’lumotlari

Birikma	a, Å	b, Å	c, Å	α , °	β , °	γ , °	V, Å ³	Z	fazoviy guruh	singoniya
L^3	5.852(2)	12.437(3)	12.444(3)	90	90	90	905.7	4	P2 ₁ /n	Ortoromb.
L^6	7.9222(5)	13.1172(7)	22.8411(12)	104	95	94	2272.4(2)	10	P1	Triklin.
L^8	16.1179(14)	11.8796(11)	16.5649(15)	90	92	90	3169.9(5)	16	C2/c	Monoklin.


L^8 molekulasi molekulyar tuzilishida ikkita mustaqil molekula (A va B) joylashadi. Molekulalar tekislik nuqtayi nazaridan bir-biridan biroz farq qiladi: vodorod bo‘lmagan barcha atomlar bir tekislikda A molekulasida 0,05 Å va B molekulasida 0,02 Å aniqlikda yotadi. Molekula tuzilishini tahlil qilinganda kristall C=S tautomer holatda ekanligi isbotlandi, bu esa C7-S1 bog‘ining uzunligi [A molekulasida 1,687 (3) Å va B molekulasida 1,684 (3) Å] bilan tushuntiriladi. Aminogruhdagi azot atomidagi bog‘lanish burchaklarining yig‘indisi A molekulasida 331,5° va B molekulasida 340,9° ga teng. Bu esa ikkala molekuladagi aminogruhlarning ham piramidallik ekanligini ko‘rsatadi.

Sintez qilingan kompleks birikmalarning miqdoriy tahlili SEM-EDX yordamida amalga oshirildi, metall ionlari, organik ligandlar uchun xarakterli ko‘p sonli cho‘qqilar, shuningdek, ligandlarning mikro tuzilishidagi o‘zgarishlar qayd etildi (3a, b-rasm).



3-rasm. [CuL⁷₂Cl₂] kompleks birikmaning mikrostrukturasi (a) va energo-dispersion spektri (b)

Ligand koordinatsion markazlarining markaziy atom bilan bogʻlanish xususiyatini aniqlash uchun d-metall tuzlarining L¹⁻⁷ ligandlar bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining IQ- spektrlari olindi. Ligandlarning IQ spektrida $\nu(\text{N-H})$ 3271-3257 cm^{-1} , $\nu(\text{C-H})$ 3098-3082 cm^{-1} , $\nu_{\text{as}}(\text{C=N})$ 1628-1620 cm^{-1} , $\nu_{\text{s}}(\text{C=N})$ 1523-1518 cm^{-1} , $\delta(\text{NH})$ 1419-1417 cm^{-1} sohalarida xarakterli yutilish chastotalari kuzatiladi. L¹-L⁷ ning IQ- spektrlarini va uning komplekslarini metall xloridlari, atsetatlar va nitratlar bilan solishtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, umuman olganda, geterotsiklda C=N bogʻining simmetrik valent tebranishlari sohalarida oʻzgarish kuzatilib, L¹⁻⁷ dan komplekslarga oʻtishda quyi chastotali sohaga 6-20 sm^{-1} ga siljiydi (4b-rasm). Kompleksning IQ-spektrida aminoguruhning 3080 va 3280 sm^{-1} dagi valent tebranish chastotalari erkin ligandga nisbatan oʻzgarishsiz qoladi. Atsidoligandlar komplekslarning ichki sferasida joylashgan boʻlib, aralash ligandli molekulyar-ionli komplekslarni hosil qiladi.




4-rasm. Ligandning L⁶ (a) va uning Zn(CH₃COO)₂ (b) kompleksini IQ-spektrlari

Ligandlar va ularning metallokomplekslari tuzilishi, shuningdek, RFA yordamida ham tadqiq etilib, ularning diffraktogrammalarda turli intensivlikdagi choʻqqilarning mavjudligini aniqlandi. L⁵ ligand va uning komplekslarining diffraktogrammadan olingan maʼlumotlari tahlil qilinganda ularda boshlangʻich ligandning aralashmalari yoʻqligini tasdiqladi. Bundan tashqari, metallarning nitratli va atsetatli komplekslari izostruktur ekanligi, sulfatli komplekslari esa ulardan tuzilishi jihatidan farq qilishi aniqlandi.

DTA da turli xil jarayonlarga mos keladigan endo- va ekzo-effektlar: namlikning, kristallizatsion suvning bugʻlanishi, fazaviy oʻtishlar va termik oksidlanib parchalanish jarayonlari kuzatiladi. Barcha birikmalarning termik parchalanishi paytida massaning yoʻqolishi 100°C dan 600°C gacha boʻlgan harorat oraligʻida (endo- va ekzo-effektlar) sodir boʻladi (5a,b-rasm). Metall

xloridli tuzlari asosidagi komplekslarning termogravigrammalarida 200-400°C harorat oralig'ida kompleks tarkibidagi benzimidazol fragmentini parchalanishi bilan massa yo'qotilishi hisobiga endotermik effekt kuzatiladi. 650 va 760°C haroratdagi termoeffektlar metall tuzlarining hosil bo'lishiga mos keladi. Suv molekularining degidratlanishiga mos keladigan endo-effektlarning yo'qligi komplekslarning ichki va tashqi sferalarida suv molekularining mavjud emasligini ko'rsatadi.



5-rasm. L⁷ bilan Co(II) (a) va Zn (b) xloridli komplekslarning termogravigrammalari

[ZnL⁷₂Cl₂] qizdirish egri chizig'ida 192.55, 322.33°C da endotermik effektlar va 598.25°C da ekzotermik effekt kuzatildi (6b-rasm). 192.55°C dagi endo-effekt kompleks birikmaning dastlabki parchalanishiga mos keladi. Keyingi endo-ta'sirlarning tabiati 192-800°C oralig'ida kompleks birikmaning parchalanishi bilan izohlanadi va rux (II) xlorid termoliz mahsuloti sifatida hosil bo'ladi. Tadqiqot natijalarining tahlili asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning termik barqarorligi markaziy ionning tabiati va kislota qoldig'iga bog'liqligi hamda ba'zi kompleks birikmalar tarkibida suv molekulari tashqi sferada joylashganligi aniqlandi.

Molekulalarda ko'plab donor atomlarning mavjudligi, tautomeriya ehtimoli va ko'plab molekulararo ta'sirlar RSA dan foydalanishni talab qiladi, uning natijalari Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan. L¹ ning Co(II), Cu(II), Zn va Cd atsetatlari bilan tarkibi hamda tuzilishi jihatidan turlicha izomorf bo'lmagan yangi kompleks birikmalari sintez qilindi va qayta kristallash orqali monokristallari olindi hamda ularning RSA yordamida kristall tuzilishlari isbotlandi (6-rasm, 2-jadval). Metallarning atsetatlari asosidagi kompleks birikmalardagi molekularning bog' uzunligi va bog' burchaklarining tahlili bir ma'noda L¹ molekulasining amin tautomer shaklida ekanligini ko'rsatadi (6-rasm). Komplekslar uchun metall poliedrning geometrik parametrlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kobaltli kompleksda [CoL¹₂(Ac)₂]·H₂O, markaziy atomning tetraedr (L-Co-L burchagi 101,8°), rux kompleksi uchun [ZnL¹₂(Ac)₂] – qiyshiq tetraedr (L-Zn-L burchaklari 99 dan 113° gacha o'zgaradi), [CuL¹₂(Ac)₂] kompleksi uchun esa koordinatsiya qiyshiq oktaedr (L-Cu-L burchaklari 94 dan 98° gacha o'zgaradi) konfiguratsiyasi kuzatiladi. Kadmiy kompleksi [CdL¹₂(Ac)₂]·H₂O uchun ion radiusining ortishi (r_{Co²⁺} < r_{Zn²⁺} < r_{Cd²⁺}), shuningdek, 4d qavatidagi elektronlarning

birmuncha kuchli itarilishi va ligandlar kristall maydon ta'sirida ko'proq taqsimlanishga uchrashi, buzilgan oktaedrik konfiguratsiyaga olib keladi (L-Cd-L burchaklari 89 dan 97 gacha va 108 dan 150° gacha) va atsetat ionining psevdobidentat koordinatsiyasini amalga oshiradi. Katta hajmdagi atsetat ionini $[\text{CdL}^1_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ strukturasiidagi kichikroq nitrat ioni bilan almashtirish koordinatsion poliedrning buzilishlarini kamaytirishga yordam beradi (L-Cd-L burchaklari 86 dan 93° gacha) va poliedrning mavjud buzilishlari kislorod atomlarining taqsimlanmagan elektron juftlarining itarilishi natijasida yuzaga keladi.

Rux atsetatning ikki xil tuzilishli komplekslari olingan. Kompleksning mustaqil strukturaviy birligi ikkita kompleks zarrachadan $[\text{ZnL}^1_2(\text{Ac})_2]$ tashkil topgan bo'lib, ular geometrik parametrlari bilan farqlanadi va bir-biri bilan vodorod bog'lari orqali bog'lanadi (6,a-rasm). Kompleks birikmaning fazoviy tuzilishi qiyshiq tetraedrik shaklga ega ekanligi aniqlangan. Shuningdek, rentgen strukturaviy va Xirshfeld yuzasi tahlili ma'lumotlariga ko'ra, bu molekularlar bir-biri bilan ichki molekulyar vodorod bog'lari orqali bog'langanligi isbotlangan. Ikkinchi kompleksda $[\text{ZnL}^1_2(\text{Ac})_2]\cdot\text{H}_2\text{O}$, suv molekulasini molekulararo vodorod bog'lanishlarida ishtirok etadi (6,b -rasm), buni Xirshfeld tahlilining d_{norm} yuzasi orqali isbotlash mumkin. Sintez qilingan barcha komplekslarning tuzilishlarida L^1 aminoguruhi va atsetat o'rtasida ichki molekulyar bog'lar mavjud. Umuman olganda, vodorod bog'lar tizimi kristall molekulasida mustahkam uch o'lchamli to'rlarning shakllanishiga olib keladi va birikmaning yuqori termik barqarorligini ta'minlaydi.

$[\text{CoL}^1_2(\text{Ac})_2]\cdot\text{H}_2\text{O}$ tuzilishida ham keng tarmoqli molekulararo vodorod bog'lari (MAVB) mavjudligi bilan tavsiflanadi. Kompleks tarkibida kristallogidrat suv molekulasini mavjud bo'lib, u MAVB hosil bo'lishida ishtirok etadi va derivatogrammalarda suv molekulasi chiqib ketishi bilan bog'liq endo-effekt kuzatiladi.

$[\text{CuL}^1_2(\text{Ac})_2]$ tarkibli polimorf kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari aniqlandi. Kompleks birikmalarni sintez qilishda aproton (atseton (6,d-rasm)) va proton erituvchi (etil spirti (6,e-rasm)) ishlatilganda, mis atsetatining ikki xil kompleks birikmasi olindi. Atsetonli kompleksning Xirshfeld bo'yicha ikki o'lchovli barmoq izlari tahlili shuni ko'rsatdiki, $\text{H}\cdots\text{H}$ atomlarining hissasi spirtli kompleksga nisbatan kamroq. Bu holatda spirtidan erituvchi sifatida foydalanilganda vodorod bog'larining ko'pligi bilan izohlanadi. Har ikkala kompleksda ham Cu-O bog'lari aksial holatda cho'zilgan bo'lib, bu Yan-Teller effekti bilan tushuntiriladi. Kompleks birikmalarning fazoviy tuzilishi qiyshiq oktaedr shaklida ekanligi isbotlandi.


$[\text{CdL}^1_2(\text{Ac})_2]\cdot\text{H}_2\text{O}$ uchun atsetatning psevdobidentat koordinatsiyasi kuzatiladi va strukturasiida kristallogidrat suv molekulasi mavjudligi komplekslarning dimerlarini lentalarga ulashni osonlashtiradi. L^1 atsetatli komplekslarining tuzilishidan farqli ravishda, $[\text{CdL}^1_2(\text{NO}_3)_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksining ichki sferasida 2 ta suv molekulari va 2 ta nitrat anionlari monodentat koordinatsiyalanadi, bunda kadmiyning koordinatsion qurshovi oktaedr bo'ladi. $[\text{CdL}^1_3(\text{SO}_4)(\text{H}_2\text{O})]\cdot 3\text{H}_2\text{O}$ kompleksida sulfat guruhi kadmiyga bidentat

